


**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

ТИЛ ВА ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ

**(Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси
М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига
бағишланади)**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТЎПЛАМИ**



**30-oktabr
2020-yil**

OUR KNOWLEDGE IS A BIG SUCCESS IN LIFE

**Department
Eng**

**SOAT
10:00**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР ФАКУЛТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ
ТИЛ ВА ТИЛ О'ҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ**

**УНИВЕРСИТЕТ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ОНЛАЙН АНЖУМАНИ
(КАФЕДРА ОЛИМАСИ М.Қ.АБДУЛЛАЕВА ТАВАЛЛУДИНИНГ 80
ЙИЛЛИГИГА БАВИШЛАНАДИ)**

**QAYSI TILLARDA
O'ZBEK, RUS, INGLIZ**

**Manzil: Buxoro davlat
universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol
ko'chasi 11-uy.**

БУХОРО – 2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

ТИЛ ВА ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ

**(Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси
М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига
бағишланади)**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТЎПЛАМИ**

БУХОРО – 2020

TARIXIY INVERSIYANING ADABIYOTDAGI O`RNI VA UNING TURLARI

Naimova A.M.

Ingliz tilshunosligi kafedrasi o`qituvchisi
Raximova Sarvinoz (11-5chi-17), Buxdu talaba.

**Kalit so`zlar:** Xronotop, tarixiy inversiya, makon, zamon, o`tmish, kelajak.

Xronotop so`zi yunoncha xronos vaqt, topos esa joy degan ma`nolarni anglatib, vaqt va makon birlashmasini hosil qiladi. Ushbu ikki tushuncha mavzuyimiz uchun ajralmas birlik bo`lib, ular bir-birining o`rnini to`ldirsada, ayni xronotopni shakllantirish uchun vaqtning ahamiyati kattadir. Zamon alomatlari makonda namoyon bo`lsada, makon zamonda o`lchanadi va anglanadi. Zamonga mos makon o`zgarib, moslashaveradi. Manbalarga tayangan holda ushbu atamani dastavval, psixologiya ilmida Uxtomskiy, so`ngra esa adabiyotda shaklini namoyon qilib, ilmda yanada chuqurroq ildiz otishiga katta hissa qo`shgan rus olimi Mixail Baxtinning xizmatlari bor. Badiiy xronotop qat`iy tarzda janriy mohiyatga ega. Aytish mumkinki, janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati zamonda ko`rinadi. Xronotop shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini ham belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma`no kasb etadi.

Demak, xayoliy ya`ni virtual hamda haqiqiy real dunyo voqealari bir-biri bilan aralashadi, rus olimi Baxtin nazariyalariga ko`ra bu yerda vaqt tig`izlashadi zichlashadi ya`ni kelajakka yoki qalinlashadi va o`tmishga qaytadi. Bu erda vaqt qalinlashadi, zichroq bo`ladi, badiiy ko`rinadigan bo`ladi; makon esa kuchayib boradi, voqea syujetidagi vaqt harakatiga tortiladi.¹

Ushbu misolda biz tarixiy inversiyaning yana bir yangi turini ayni zamonlik holatidan vaqtning qalinlashganini va o`tmishga qaytganini guvohi bo`lamiz, bunda asarning bosh qahramoni bo`lmish Otabek otasining egallagan mansabini tasvirlaykan Toshkent xoni Azizbekning unga bo`lgan munosabati shaxs xususiyatlarini tasvirga olib, inversiyaning o`tmishga qaytgan holatini ko`rsatib bermoqda:

Otam Azizbekning mushoviri va yaqin mushohibi sanalsa ham lekin bu juziy ishlardaginar, buning uchun sizga bir misol keltiray, bu ish shu yaqin oralardag`ina bo`ldi: *Toshkanddagi jumalik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maxtar va bu maxtovg`a qarshi ikkinchisi "nega muncha maxtaysan, Azizbekning asli bir bachcha-da" der. Ularning bu muzokaralarini chetdan eshitib turgan xufyalardan biri bu so`zni Azizbekning qulog`ig`a yetkuzar. Ertasiga Azizbek mazkur ikki kishini o`z huzuriga oldirib maxtovchig`a ulug` mansab ato*

¹ M. M. Baxtin Romandagi vaqt va xronotop shakllari. Tarixiy she'riyat haqida insholar // Baxtin M.M. Adabiyot va estetika. : Sat. - M.: Rassom. yoritilgan, 1975. - B. 239.

qilar va ikkinchisini o'limga buyurar... Bu hukm majlisida hozir turgan otam mahkumning gunohini so'raganida Azizbek jallodga baqirar: "Tezroq olib chiq!" Otam tag'in qulliq qilg'anida jallodga buyurar: "Qo'lingdag'ini bo'shatib, o'rniga hojini olib chiq!" – Mana ko'rdingizmi, otamning qadru qimmatini.¹

Bu misolda yozuvchi inversiyaning so'zlab berish vositasini ishlatib, Toshkent xonining shaxs sifatlarini ochishda bo'lib o'tgan real voqealarni eslash davomida uni boshqa bir asar qahramoniga so'zlab bermoqda.

Keyingi misolga yuzlansak, xronotopni yuzaga keltirishdagi navbatdagi vosita bu uyqudir. Ya'ni romanda tasvirlangan Hasanali obrazi shu qadar sodda, rahmdil, ko'ngli ochiq shaxs sifatida tasvirlanadiki, u o'z hukmdorining taqdiriga befarq emasligi, ko'ngil achinishi, bo'lib o'tgan chigalliklarni yechishga urinishi kabi fazilatlar uning shaxs sifatlarini yanada orttiradi.

*Bu o'ylarni tugatgandan keyin uning ko'zlari uyqu sari yumila boshlab qarshisig'a Otabek kelib to'xtar edi: "Ota, men sizning bu qilg'an yaxshiligingizni sira unutmasman" deb minnatdorlik qilg'andek bo'lar edi. Hasanali uyg'onib ketar va qaytadan shu to'g'rida o'ylab boshlar edi...*²

Bu parcha orqali biz tarixiy inversiyaning uyqu vositasini hamda voqealar rivojining ortga qaytishi, vaqtning quyuqlashishi va o'tmishga qaytishlik belgilari ko'rindi. Bunday zamon faqat texnik mezonlarda o'lchangan, har bir sarguzasht uchun alohida belgilangan kunlar, tunlar, soatlar, lahzalardan iborat. Qahramonlar yoshida ayni sarguzashtlar favqulodda muhim, biroq hisobdan tashqari, noaniq zamonda sodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. M. Baxtin Romandagi vaqt va xronotop shakllari. Tarixiy she'riyat haqida insholar // Baxtin M.M. Adabiyot va estetika. : Sat. - M.: Rassom. yoritilgan, 1975. - B. 239.
2. O'tkan kunlar. Abdulla Qodiriy. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent. 1959 yil. –B. 108.
3. www.ziyo.uz.com

¹ O'tkan kunlar. Abdulla Qodiriy. G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent. 1959 yil. –B. 108.

² O'sha yerda:-B. 84.

Akramov I.I. The aphorism and the aphoristic style of communication.....	65
Ruzieva N.Z. Spirituality term in scientific approach.....	68
Kobilova A.B., Salimova D. Obsolete and newly accepted idioms in English language with their origins.....	70
Kobilova A.B., Shirinova Sh. Lexical meaning versus grammatical meaning.....	73
Kobilova A.B., Abdurakhmonova M. Multilingualism and its importance.....	76
Kobilova A.B. What is Periphrasis?.....	79
Rasulov Z.I., Saidov X.Sh. Reduction as the way of the language economy manifestation	83

2-ШЎБА: АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ЖАМИЯТ

Vokhidova N.N. The depiction of evil in Shakespeare's "Macbeth".....	91
Najmiyev M.M. Sharq adabiyotidagi pand-nasihat ruhida bitilgan asarlar tahlili.....	93
Рўзиева Д.С. Интуллектуал романнинг ўзига хос хусусиятлари.....	96
Naimova A.M., Raximova S. Tarixiy inversiyaning adabiyotdagi o`rni va uning turlari.....	98
Ganieva O.Kh., Charieva M.J. Detective elements of Uzbek literary works ...	100
Ахмедова С.Х. Эпик кўмакчи қаҳрамоннинг бадиий вазифалари.....	102
Ғаниева О.Х., Садуллаев Ф.Б. Одил Ёқубовнинг ўзига хос ривоя услуби ва бадиий тасвир маҳорати.....	105
Xabibullayeva R.M., Safoyeva M.G. O'zbek va jahon adabiy aloqalari.....	108
Холикова Н.Н. Детектив-криминал сўзларнинг характер яратиш, бадиий-фалсафий мазмунни ифода этишдаги вазифалари.....	114
Ғаниева О.Х., Эргашева М.Б. Жон Стейнбекнинг "Олтин пиёла"си хусусида.....	117
Sadullayev F.B., Olimova X.M. O.Henri - inson ruhiyatining kuchli bilimdoni.....	119
Саидова М.У. К. Болдикнинг «The concise Oxford dictionary of literary terms» луғатидаги адабиётшунослик терминларининг этимологик таҳлили.....	121
Saidova Z.X. Ernest Xeminguey ijodida zamon va qahramon masalasi.....	124
Saidova Z.X. Symbolism of setting and characters in "The old man and the sea" by E.M.Hemingway.....	125
Qobilova N.S. muallif va asar qahramoni hayotidagi o'xshashliklar.....	127
Норова Р.Ф. Эртактлар тилсимотини очиш калити.....	131
Норова Р.Ф. Ж.Р.Киплинг ҳикояларининг талқини.....	133